



ORIYLAR MUOMMOSI: ORIY QABILALARINING HINDISTONGA KIRIB KELISHI:

Mengliboyev Akmal Xolto'rayevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi (PhD)

Qalandarova Madina Jo'rabek qizi

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti
talabasi (Denov O'zbekiston)

Tel: +998997081641

e-mail: qalandarovam05@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7765380>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16- mart 2023 yil

Ma'qullandi: 18-mart 2023 yil

Nashr qilindi: 24-mart 2023 yil

KEY WORDS

Oriylar, hind sivilizatsiyasi, "shi" solnomasi, janubiy rus dashlari, Magadxa, Rigveda, Xarappa, Mahenjo-Daro, mil.avv II-ming yillik, Kosambi, Ar'yavarta

ABSTRACT

Dunyoda xalqlar ko'p ularning har birining kelib chiqishi, rivojlanishi va madaniyatining vujudga kelishi o'ziga xosdir. Ushbu maqolada Oriy qabilalarining qayerda paydo bo'lganligi, ularning boshqa hududlarga kirib borishi, xalqlar bilan assimilatsiya jarayoni hamda turli xalq olimlarining oriylarning ko'chishlari haqida fikrlari keltirib o'tilgan. Aynan oriylarning ko'chish jarayonlari hozirgi kunda "Oriylar muommosi" ni keltirib chiqargan. Oriylarning Qadimgi Hind diyoriga kirib kelishi ularning hayot tarziga ta'sir etmay qolmadi. Balki oriylar va hindlarning o'zaro assimilatsiyalashuv jarayoniga sabab bo'ladi.

Hind sivilizatsiyasi juda qadimdan tuprog'i hosildor keng vodiyni egallagan. Bu yerda mil.avv 3-ming yillikda Janubiy Osiyoda eng qadimgi shahar sivilizatsiyasi shakllandi. Hindiston shimoldan va shimoli-sharqdan Osiyoning boshqa qismidan Himolay tog'lari bilan ajralgan. Mil.avv 2-ming yillikda bu yerlardan hind-yevropa qabilalari yo'li o'tgan. Hind-Gang tekisligining markaziy qismi qadimgi "oriy"larning "muqaddas yeri" (Ar'yavarta) deb atalgan. Ikki buyuk daryoning oralig'i va Gangning yuqori qismida mil.avv 1-ming yillikning birinchi yarmida veda sivilizatsiyasi vujudga kelgan. Hind olimi Kosambi "Hind madaniyatining har qanday yuksak darajaga erishishi oriylar xizmati" deb yozib qoldirgan. Oriylar o'zi kimlar?

Oriylar Markaziy Osiyo chorvador qabilalarining iqtisodiy yuksalishidagi ko'chmanchilik hayot bosqichining ijtimoiy mahsuli, ularning tashabbuskor va tadbirkor qatlami, tug'ilib kelayotgan dastlabki sinfiy jamiyatning aslzodalar toifasiedi. Oriylarning madaniyatizlari miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalariga borib taqaladi. Bu davrda ular Yevroosiyo cho'llarining oriylari o'z chorvalariga yangidan-yangi yaylovlar qidirib, janub tomon, O'ra Osiyoning ichki rayonlariga, undan o'tib, Xerirut (Hiro) vodiysiga, hozirgi Eron hududlariga, Hindikush tog'laridan oshib, Hind daryosi havzalarigacha kirib boradilar. Hind-oriylari Markaziy Osiyo hududidan Hindistonga, bir qismi Old Osiyo hududiga ko'chib o'tishadi. Oriy madaniyati izlari G'arbiy Eron hududidan ham topilgan. Chorvador oriylarning Eron adirlarida o'rnashib qolgan joylar Avestoda "Oriana" nomini olgan. Aslida, qadimgi tarixda oriana atamasi nafaqat hozirgi Eron hududi, balki qadimgi eroniy tillar tarqalgan geografik kenglik ma'nosida tushuniladi. Boshqa bir guruh olimlarning fikriga ko'ra: oriylar janubiy rus

dashtlaridan boshqa hududga tarqalgan deyiladi. Ya'ni janubiy rus dashtlaridan Kavkaz orqali Hindiston va eron tomon borishi aytiladi. Hindlarning muqaddas kitobi "Rigveda"da oriylarning kirib kelishini mil.avv II ming yillikning oxiri ya'ni mil.avv XIII-XII asrlarga borib taqaladi. Mil.avv I ming yillikning o'rtalarida oriylar sharqqa harakat qilib, Gang vodiysini o'zlashtirishi bilan hind-oriylarning joylashish jarayoni yakunlandi. "Rigveda" va "Avesto"da oriylarning ilk vatani-Aryanam vayja deb atalib, u chorva va yaylovlarga boy o'lka sifatida ta'riflanadi. "Rigveda" va "Avesto" tili hozirgi zamon Yevropa xalqlari tili bilan monand ekanligi qayd qilinib, Yevropa mintaqasida, ayniqsa SHarqiy Yevropa hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalarini oriylarning ijtimoiy hayot tarzi bilan qiyosiy o'rganish tufayli, oriylar til jihatidan aslida eroniy tillar oilasiga tegishli bo'lgan, tarix taqozasi bilan ularning bir qismi miloddan avvalgi II-ming yillikning o'rtalarida shimoliy-g'arbiy Hindiston va Eron hududlarida bostirib borib o'rnashib qoladilar-degan fikr mavjud edi. Demak, qadimgi eroniy va hind qabilalarining ajdodlari Yevroosiyo cho'l va dasht mintaqalarining azaliy xalqi bo'lib, qadimgi eroniy til janubiy mintaqalarga ana shu yurtlardan tarqalgan, ya'ni hindu-eron oriylarining mahalliy aholi bilan qarishuvi tufayli, mahalliy aholi oriylar tilini o'zlashtirib, mintaqada eroniy til oilasi shakllanadi. Shuning uchun ham ularning urf-odatlarini, madaniyati va tilining yaqinligi, diniy tushunchalarining birligi va nihoyat asosiy so'z boyligini umumiylik ko'zga tashlanadi, degan tushunchalar hukmronlik qilib keldi. Fandagi mavjud tasavvurlarga ko'ra, oriylar aslida eroniy tilli ko'chmanchilar bo'lib, bu tilning ilk vatani qadimda yevropa, aniqrog'i SHarqiy Yevropa mintaqalari bo'lgan.

Xitoy manbalariga ko'ra : oriylar tarixiy tilshunoslik va arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, aslida eroniy til sohiblari emas, balki qadimgi Xitoy kichik podshohlari "shi"larining yilnomalari tahliliga ko'ra turkiyda so'zlashganlar. Ularning miloddan avvalgi II-ming yillikning o'rtalaridan hayot taqozasiga ko'ra janubiy o'lkalarga, jumladan O'rta Osiyo mintaqalariga ommaviy ravishda kirib kelganliklari arxeologik materiallarda ham kuzatiladi. Ular keng ko'lamda tarqalgan va doimiy kirib kelib o'rnashib qolgan hududlarda (Janubiy Turonda) ilk o'rta asrlarga kelib turk-sug'diy ijtimoiy etnomadaniy maydon tarkib topdi. Natijada , bu tarixiy maydon doirasida o'zbek va tojik xalqlari shakllanadi. Eron, Afg'oniston, Pokiston va SHimoliy Hindiston hududlariga oriylarning kirib borishi arxeologik materiallarda yaxshi kuzatilmasada, ba'zi bir olimlar (S.P.Tolstov, M.A.Itina) hind vodiysi sivilizatsiyasining halokatini oriylarning hujumi bilan asoslashga urinadilar. Boshqa guruh olimlar esa (G.M. Bongard-Levin, G.F. Ilin) Xarappa sivilizatsiyasi halokati bilan oriylarning hind vodiysiga kirib kelish vaqti to'g'ri kelmasligini ta'kidlaydilar. Bizningcha, miloddan avvalgi II-ming yillikning ikkinchi yarmi davomida oriylarning qaysi bir bo'lagi Eron, Afg'oniston va SHimoliy Hindiston hududlariga kirib borganlar. Buni qadimgi yozma manbalar – "Rigveda" va "Avesto" ham tasdiqlaydi. Ammo, oriylar na Hindiston, na Sharqiy Xuroson va na Eronning mahalliy aholisi tilini o'zgartirib yubora olmagan. Aksincha, Janubiy Eron-Parsda mahalliy asosda tarkib topgan qadimgi fors-dariy tili oriylarning mahalliy jamoalari ustidan o'rnatgan hukmronlik siyosati tufayli o'sib va rivojlanib borgan va uning geografik doirasi kengayishiga keyingi tarixiy jarayonlar keng imkoniyatlar yaratgan. Demak, Ariana uchun eroniy til tashqaridan kirib kelmadi, aksincha o'zga yurtning istilochilari tili mahalliy aholi tili tomonidan assimiliatsiya qilindi. Oriylarning Hindistonga kirib kelishi ancha ta'sirli manzara bo'lgani uchun uning ahamiyati biroz bo'rtirilgan bo'lishi ham mumkin. Shaxarning shimoliy qismida erkaklar , ayollar va bolalarning qilich va bolta izlari saqlanib

qolgan suyaklari topilgan. Suyaklar uyum holatida bo'lib, ular bosqinchilar shaharni olgan paytda o'ldirilgan, deb taxmin qilinadi. Bu Mohenjadarо halokatga uchragan payt edi. Bu voqealarning tarixiy ahamiyatiga kelsak, Mortimer Uiler, ram Sharan Sharmava va boshqa olimlar fikricha, Qadimgi Hind sivilizatsiyasi o'z harakteriga ko'ra oriylar sivilizatsiyasi bo'lmagan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, bu sivilizatsiya mil.avv II ming yillikning yarmida mavjud bo'lgan. Mil.avv XVIII-XV asrlar oralig'ida inqirozga uchrab, o'z maqomini yo'qotgan. Bu davrda shimoli-g'arb tomondan noriy qabilalari kirib kelib, mahalliy aholini bo'ysindiradi. Natijada, mahalliy aholi bilan oriylar o'rtasida shakllangan o'ziga xos munosabatni aks ettiruvchi kasta tizimi vujudga keldi va ma'lum darajada hozirgacha saqlanib qolgan. Oriy qabilalari kirib kelishi natijasida Hindistonda o'ziga xos madaniyat izlarini ham qoldiradi. Qadimgi hind adabiyotining mashhur yodgorligi "Rigveda"ning minglab madhiyalari va so'ngi veda adabiyotlari oriylarning diniy e'tiqodlari to'g'risida boy ma'lumot beradi. Qadimgi Hindistonda xudolar pog'onasi mavjud emas. Xudolar samoda yashaydi. Oriylar xudolar tasviriga sig'inganlar. Qurbonlik keltirish, olovga moy quyish, arpa donini tanlash bilan ifodalangan, go'yoki qurbonlik tutun bilan samoga ko'tarilib, xudolar qurbonlikdan to'yib, yerdagi bandalariga ovqat yuboradilar. Mil.avv II-ming yillik o'rtalariga kelib Qadimgi Hind sivilizatsiyasi inqirozga uchraydi. Olimlar fikricha buning asosiy sababi tabiiy ofatlar bilan birga yangi etnik guruhlarining kirib kelishi bo'lgan. Ularning tili asosida yangi adabiy til- "Sanskrit" (tozalangan) shakllanadi. Yangi til hozirgi fin, eston, venger, bask va turk tillaridan tashqari, barcha Yevropa tillarining uzoq o'tmishi ekanligi allaqachon isbotlangan. To'rt ming yil ilgari janubiy Rossiya cho'llarida yashagan ko'chmanchi qabilalarning tili keyinchalik shakllangan Yevropa tillari uchun asos bo'lgan. Shu tariqa til va madaniyat o'zgaradi, ammo uning qanday yuz berganligi, hind-yevropa qabilalari bilan mahalliy aholining assilyatsiyalashuv darajasi haqida ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Ko'chmanchilar asta-sekin kirib kelgan bo'lishlari mumkin. Olimlarning fikriga ko'ra, Xarappa va Moxenjo-Daro ular tomonidan vayron qilingan. Oriylar bosqinidan keyingi Hindiston tarixi bizga asosiy she'riy asarlar- vedalar hamda Maxabxarat va Ramayana epik dostonlari orqali tanish. Olimlarning fikricha, bosqinchi oriylar iqtisodiy va madaniy taraqqiyot darajasi bo'yicha qadimgi hindlardan ancha pastroq pog'onada turganlar. Ularning g'alabasi Qadimgi Hindiston iqtisodiyoti va madaniyati rivojlanishini uzoq muddatga to'xtatib qo'ygan. Jamiyat ibtidoiy jamoa tuzumiga qaytdi. Faqat mil.avv I-ming yillikning birinchi yarmida yana davlat vujudga keladi. Bu Gang daryosining quyi oqimida shakllangan o'sha davrning eng katta va kuchli davlati Magadxa edi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam Oriy qabilalarining qayerdan kirib kelganliklari hali hamon olimlar o'rtasidagi asosiy munozara bo'lib qolmoqda. Ularning Hindistonga kirib kelishi nafaqat hind aholisi bilan balki boshqa xalqlar bilan ham assilyatsiya jarayonini keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avdiyev.E "Qadimgi sharq tarixi" T-1964.
2. Kochetov.A.N. "Buddizm" 1983.
3. Бонгард Ливин «Индия в древности» 1985
4. F.Yengels «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi" Uzdavnashr. 145-bet.
5. Q.Rajabov "Qadimgi dunyo tarixi"
6. Глазами друзей. Русский об Индин. Сборник. Соц. А.В.Занадова и Е.П.Прохорова. М.1957

7. Алаев л.Б Социальная сруктура индийской дйеревни: (Тйерилория) Уаттар Прадеша ХТХ в.М.л 976
8. Антонова К.А Английкое завоевание Индии в XVIII веке. М. 1958.
9. Осипов А.М. Великое восцание в Индии. 1887-1859. М. 5957.
10. Xolto'rayevich, M. A. (2022). The Last Period in the Resistance Movement in Surkhandarya and the Repression of the National Forces. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 17-20.
11. Менглибоев, А. (2021). Сурхон воҳасида миллий озодлик ҳаракати натижалари ва оқибатлари. Academic research in educational sciences, 2(4), 1655-1674.
12. Nazirov, B. (2022). Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спорт тарихи (XX аср–XXI аср бошларида Сурхон воҳаси мисолида). Scienceweb academic papers collection.
13. Nazirov, B. (2020). Ўзбекистонда жисмоний маданият ва Спорт тарихини (XX аср–XXI аср бошларида Сурхон воҳаси мисолида) ўрганишнинг долзарблиги. Scienceweb academic papers collection.
14. Менглибоев, А. Х. (2021). Сурхондарё округида миллий кучларнинг қатағон қилиниши. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 4(11).
15. Mengliboyev, A. X. R. (2020). Tarixiy shaxslarning milliy manfaatlar uchun kurashi tarixidan. Утмишга назар, 215-219.

INNOVATIVE
ACADEMY